


M.B.ZAYNUTDINOVA,
N.J.XOJIYEVA,
D.A.MIRZAYEV



TA'LIM JARAYONLARI BOSHQARUVINI AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARDА QAROR QABUL QILISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANТИRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

M.B.ZAYNUTDINOVA, N.J.XOJIYEVA, D.A.MIRZAYEV

**TA'LIM JARAYONLARI BOSHQARUVINI
AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLarda
QAROR QABUL QILISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH**



**TOSHKENT
2018**

Mas'ul muharrir: t.f.d., prof. Sh.M. Gulyamov

Tagrizchilar: *t.f.d. prof. SH.M. Gulyamov;*
t.f.d. prof. M.S. Yakubov

T 19 Ta'lim jarayonlari boshqaruvini avtomatlashtirilgan tizimlarda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash: Monografiya // M.B. Zaynutdinova, N.J. Xojiyeva, D.A. Mirzayev. TATU, 2018. –128 b.

Monografiya malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash ta'lim maskanlarida, murakkab ilmiy texnik vazifalarda qaror qabul qilish mexanizmiga asoslangan - samaradorligini shakllantirish hisobi ko'rsatib berilgan. Vaqt qatorlarining tahlili asosida tinglovchilar sonini ratsional baholash modellari ko'rsatilgan.

Tinglovchilarni o'qitish samaradorlik ko'rsatgichlari aniqlangan va ularning metodik hisobi taklif qilingan. Ishlab chiqarishda axborot tizimidagi qaror qabul qilishning funksional va tizimli imkoniyatlari ta'riflangan.

Boshqaruv qarorlarida aniq bo'lмаган darajalar sharoitida alternativlarni tanlash tizimi asosida maxsus matematik va dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Monografiyada malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi o'quv muassasalaridagi murakkab ilmiy texnik vazifalarning samaradorligi qaror qabul qilish mexanizmi hisobiga asoslangan va ta'lim oluvchilarning ratsional sonini matematik va tezkor ma'lumotga va dasturiy ta'minot tizimini qaror qabul qilishni hal etishga qaratilgan.

Avtomatlashtirilgan ta'lim tizimida qaror qabul qilishning zamonaviy va amaliy holati tahlil qilingan hamda uning taraqqiyoti asoslarining tendetsiyalari ko'rsatilgan.

Boshqaruv qarorlarining usullari, ishlab chiqarish tamoyillari va klassifikatsiyasi taklif qilingan; vaqt qatorlarining statistik asosda iqtisodiy ko'rsatgichlarini operativ ma'lumotlar usuli fan sohasi tahliliida modellashtirish imkoniyatlari, boshqaruv qarorlarida qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalanish ko'rsatilgan.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining 2018 yil "29" iyundagi "4"-sonli yig'ilishi bayonnnomasi asosida chop etishga tavsiya etildi.

Respublikamiz ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi va “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunlari, “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida ish olib boriladi. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlarda kirib kelishi ta’lim tizimlarida axborotga bo‘lgan munosabatlarni tubdan o‘zgartirdi.

Taqriz qilinayotgan monografiya ta’lim tizimida muhim ahamiyatiga ega bo‘lgan talim jarayonlari boshqaruvini avtomatlashtirilgan tizimlarda qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashning samarali modellarini ishlab chiqishning dolzarb vazifasini hal etishga bag‘ishlangan. To‘plangan empirik ma’lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni asoslanganligi tadqiqotlar yo‘nalishi shubxasiz muximligi va aktualligidan dalolat beradi.

Muhokama qilinayotgan monografiyada mualliflar tomonidan bir qator muxim masalalar yechilgan. Mualliflar statistik modellashtirish va vaqt qatorlari qonuniyatlarini taxlili asosida asosiy belgilarni aniqlashtirish imkonini beruvchi uch o‘lchovli vaqt qatorlarining model va algoritmlarini ishlab chiqgan hamda tinglochilarini o‘qitishning natijaviy ko‘rsatkichi aniqlangan va ularni hisoblash metodikasini taklif qilganlar. Ular tomonidan ishlab chiqilgan qaror qabul qilish axborot tizimining stukturasi va funksional imkoniyatlari tavsiflab berilgan.

Taqriz qilinayotgan ishning amaliy ahamiyati ta’lim tizimida tinglovchilar sonini yil davomida oyma-oy bashorat qilish va shu asosida o‘qituvchilar yuklamalarini hamda o‘quv jarayoni grafigini shakllantirishda optimal yechimni qabul qilishdan iborat. Monografiyaning asosiy afzalliklariga uning amaliy yo‘naltirilganligi va natijalarining dasturiy ta’minotni amalga oshirishgacha yetkazilganligidadir.

Taqrizlanayotgan monografiya Respublikamizda “Talim jarayonlari boshqaruvini avtomatlashtirilgan tizimlarda qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash” tizimini joriy etish muammolariga bag‘ishlangan va o‘zbek tilida yozilgan birinchi kitobdir. Mening fikrimcha, ushbu monografiya kamchiliklardan xoli emas: monografiyada taklif qilinayotgan bashorat qilish modellari qanchalik universalligi aniq emas, ularni boshqa ta’lim muassalarida qo‘llash uchun

moslashtirish mumkinligi aks ettirilmagan, shuningdek, ushbu ishda statistik ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan jadvallarda ba'zi bir ko'rsatkichlar turli aniqlikda ketirilgan bu esa, natijalarning qiyosiy tahliliga ta'sir etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu monografiya Respublikamizda "Talim jarayonlari boshqaruvini avtomatlashtirilgan tizimlarda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash" tizimini joriy etish sohasida ilk bor chop etilgan o'zbek tilidagi asar bo'lib, Oliy o'quv yurtlari talabalari, magistratura tinglovchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchi-tadqiqotchilar, professor o'qituvchilar va ta'l'im tizimini boshqaruvi organlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutahassislarga mo'ljallangandir. Mualliflardan esa yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olgan holda, mukammal yozilgan, ushbu dolzarb muammoga bag'ishlangan yangi asarlar kutib qolamiz.

Taqrizchi:

*Islom Karimov nomidagi TDTU, "Ishlab
chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish"
kafedrasi professori, texnika fanlari doktori
SH.M. Gulyamov*

O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamонавија jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagи "Zamonавија axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1730-son, 2013-yil 26-martdagи "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1942-sonli va 2013-yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarorlarida fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish, jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi masalalar maqsad qilib olingen.

Jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvining rivojlanishida ta'lim asosiy rol o'ynaydi. Raqobatbardosh ta'limsiz innovatsion iqtisodiyotga o'tish mumkin emas, chunki ta'lim darajasidan ishchi resurslarning sifati to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Kuchli raqobat, hattoki ichki bozordagi boshlang'ich yo'naliishlarni o'rta maxsus ta'lim darajasidagi ishlar orqali optimal boshqarish xususiyatiga egadir. Resurslarni faol taqsimlash uchun o'rta maxsus ta'lim faoliyatini qayta ishlab chiqish va qaror qabul qilishda axborot tizimlariga yo'naltirish kerak.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga zamонавија axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda kirib kelishi davlat ta'lim tizimlarida axborotga bo'lgan munosabatlarni tubdan o'zgartirdi.

Taqriz qilinayotgan monografiya o'rta maxsus ta'lim muassasalari ish faoliyati samaradorligini "tabiat bilan o'yinlar" nazariyasi asosida qaror qabul qilish mexanizmini takomillashtirish, tinglovchilar sonini tezkor bashorat qilish, menedjment sifatini avtomatlashtirilgan tizimni yaratish xisobidan oshirishga va qaror qabul qilish tizimining matematik model va algoritmlarini yaratish murakkab ilmiy texnik masalani echishga bag'ishlangan.

Muhokama qilinayotgan monografiyada qaror qabul qilish oliy ta'lim muassasalari uchun ham ishlab chiqilgan so'nggi vaqtarda ta'lim yo'naliishlari o'rta maxsus ta'lim muassasalari tomonidan namoyish qilinmoqda va katta qiziqishlarga sabab bo'layotganligi yoritib berilgan.

Qaror qabul qilishni muvaffaqiyatli ishlab chiqish uchun aniq bilimlar sohasini aniqlash zarur. Bunda axborot to'g'ridan to'g'ri tuzilmasi shakllantirilmagan tavsifga ega bo'lib, fan sohasidagi matematik modellarini formallashtirish va shakllantirish zaruratiga egadir.

Mualliflar tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari va ta'lim muassasalaridagi mavjud axborot tizimlarining tadqiqotlari o'tkazilgan. Ishda ta'lim jarayonlari boshqaruvini avtomatlashtirilgan tizimlarda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning nazariysi va amaliyotining hozirgi holati chuqur o'rganilgan. Adabiyotlarni tahliliy o'rganish asosida mualliflar monografiyaning asosiy maqsadini qo'yish hamda kam o'rganilgan va etarli ishlab chiqilmagan vazifalarini qo'yishni amalga oshirdi. Monografiya mualliflari statistik modellashtirish va vaqt qatorlari qonuniyatlarini taxlili asosiy belgilarini aniqlashtirish imkonini beruvchi uch o'lchovli vaqt qatorlarining model va algoritmlarini ishlab chiqdilar. Taqriz qilinayotgan ishda tinglovchilarni o'qitishning natijaviy ko'rsatkichianiqlangan va ularni xisoblash usuli taklif qilingan, shuningdek ishlab chiqilgan qaror qabul qilish axborot tizimining stukturasi va funksional imkoniyatlari tavsiflab berilgan.

Taqrizlanayotgan monografiyada qaror qabul qilish hamda dasturiy ta'minot tizimidagi matematik xulosalarni yaratish va tinglovchilar miqdorini e'lon qilish bilan ta'lim muassasalaridagi qo'shimcha ta'lim tizimlarini faolligi ko'tarilishi ko'rib chiqilgan. Kasb hunar ta'limi muassasasi ishining samaradorligini oshirishda qaror qabul qilish mexanizmi hisobiga namoyon bo'ladi va tinglovchilar miqdorining ratsonalligi haqida ma'lumot beradi. Matematik tizimda qaror qabul qilishda matematik va dasturiy ta'minotini yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, natijalarning haqqoniyligi qaror qabul qilish va boshqarishning nazariy va amaliy usullaridan to'g'ri foydalanish orqali tasdiqlangan. Monografiyaning hisob-kitob qismi shaxsiy kompyuterdan foydalanib bajarilgan. Ushbu monografiya mualliflari talim tizimi va jarayonlarni boshqarishning intellektual tizimlarining funksional imkoniyatlarini jiddiy kengaytirishga mo'ljalangan yangicha loyihibaviy va konstrukturlik tavsiyalarini asoslab bergen, chunki ular tadqiq etilgan jarayonlar va holatlar ishlab chiqilgan adekvat matematik modellarining istiqbolda foydalanishga qaratilgan.

Taqrizchi:
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti "Axborot tizimlari" kafedrasi
professori t.f.d., prof. M.S. Yakubov

KIRISH

Bugungi kunda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash ta'lrim maskanlarida, murakkab ilmiy texnik jarayonlarning jadal rivojlanishi ilmiy salohiyatning baholanishiga, axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborot tizimlarini ishlab chiqishga, hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda ilmiy salohiyatni baholash usullari, bashoratlash masalalari va ma'lumotlarni intellektual tahlilash masalalarini echish usul va algoritmlarini tadqiq qilish muhim va dolzarbdir. Respublikamiz ta'lrim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlari, "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lrim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida chuqur, keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilar ekan, uzlusiz iqtisodiy ta'lrim tizimini shakllantirishga yuqori darajada ahamiyat berilmoqda. Prezidentimizning 2002-yil 30-maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va vazirlikning bu boradagi tegishli ko'rsatmalari o'quv ta'lrim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda xalqaro axborot ta'lrim resurslaridan samarali foydalanish va ularni mahalliy resurslar bilan uyg'unlashtirish yo'lida munosib zamin yaratadi. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamонави iqtisod, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimiga amal qilish va milliy dasturni zamонави ilmiy tafakkur yutuqlariga, ijtimoiy tajribaga tayangan holda uzlusiz ta'lrim tizimining barcha shakldagi ta'lrim muassasalarida ta'lrim jarayonini ta'minlovchi ilg'or ilmiy – uslubiy texnologiya sifatida amalga oshirishdir. Shu bilan birga malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari ilmiy salohiyatini oshirishda turli mezonlar bo'yicha monitoring qilishning axborot modellari, ilmiy salohiyat ko'rsatgichlarining bog'liqliklarini aniqlovchi usullari, elektron hukmatning kompleks axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashinuvli integratsiya modullarini ishlab chiqishda maqsadli ilmiy

tadqiqotlar zarur. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida, jumladan “...ilg‘or axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish...” vazifalri belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risidagi” (2003), “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” (2004), “Elektron hukmat to‘g‘risida” (2015) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Qaror qabul qilish oliy ta’lim muassasalari uchun ham ishlab chiqilgan so‘nggi vaqtarda ta’lim yo‘nalishlari malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash ta’lim muassasalari tomonidan namoyish qilinmoqda va katta qiziqishlarga sabab bo‘lmoqda. Qaror qabul qilishni muvaffaqiyatli ishlab chiqish uchun aniq bilimlar sohasini aniqlash zarur.

Ishdan maqsad – qaror qabul qilish hamda dasturiy ta’midot tizimidagi matematik xulosalarni yaratish va tinglovchilar miqdorini e’lon qilish bilan ta’lim muassasalaridagi qo‘srimcha ta’lim tizimlarini faolligini ko’taradi.

Malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash ta’lim muassasasi ishining samaradorligini oshirishda qaror qabul qilish mexanizmi hisobiga namoyon bo‘ladi va tinglovchilar miqdorining ratsonalligi haqida ma’lumot beradi. Matematik tizimda qaror qabul qilishda matematik va dasturiy ta’midotini yaratadi. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

- tadqiqotlar malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini o‘rganish;
- foydalainilgan boshqaruv axborot oqimi asosida fan sohasidagi malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash ta’limni shakllantirish;
- vaqt qatorlarini modellashtirish va ma’lumotlar bilan ta’minalash darajasida malaka oshirish va qayta tayyorlov kurslarida tinglovchilar sonini aniqlash;
- maxsus algoritmik va dasturiy ta’midot model foydasi uchun to‘lov matritsalarining hisoblash usullarini ishlab chiqish;
- o‘qitish samaradorligini baholash modelining matematik ishlansasi qaror qabul qilishda axborot tizimining algoritmik va dasturiy ta’midotini ishlab chiqish.

Insoniyat umri davomida ilmiy salohiyat masalalarini tadqiq qilishda fan, texnika va yuqori texnologiyalar roli beqiyosdir. Ilmiy salohiyatni baholash usullari, bashoratlash, qaror qabul qilish masalalari bo'yicha o'z ishlarida muallif olimlar ya'ni E.V.Kiseleva, M.I.Suxomlinova, V.A.Artyuxina, I.Ansoff, O.P.Umanseva, N.V.Zlobinoy, V.V.Baranova, I.K.Gevlich, S.B.Lapshinova optimal yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish yechimlarini topishga va qaror qabul qilishning axborot loyihasiga bag'ishlangan. Ta'lif sohasida baholash sifatini yaratish modeli va usullarini yaratgan. P.V.Yakovleva, A.Kolesnikova, I.V.Sibikinoy, L.I.Menshaevoy, I.V.Veshnevoy, E.Bushuevoy, E.V.Suminoy, A.V.Gorshkova ilmiy mehnatlariga qaratilgan. Ontologik modellashtirishga qaratilgan savollar chet elliq olimlarning ishlarida ya'ni: T.Gruber, N.Guarino, N.M.Borgest, T.A.Gavrilovoy, YU.A.Zagorulko, L.S.Bolotovoy, B.V.Dobrov, M.R.Kogalovskiy, A.F.Tuzovskiy, L.V.Massel, V.F.Xoroshevskiy, V.Z.YAmpolskiy, E.A.Teslinada ham ko'rib chiqilgan. Bu sohada qilingan ishlarning ko'pchiligi muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi va «tor» joylarning miqdori va yetarli bajarilmaganligini bildiradi.

Ushbu monografiyada ilmiy yangilik sifatida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini' oshirish institutlarida, maxsus ta'lif tizimida fanning bajarilishini shakllantirish, tizimlash, konseptuallash va ta'riflash ochib berilgan. Uch o'lchamli ma'lumotlar asosida vaqt qatorlarini qayta ishlash usuli ishlab chiqilgan. Vaqt ko'rsatkichlari asosida tinglovchilar miqdorini regeritsion modeli qurilgan. So'rovnama natijasi asosida ta'lifning natijaviyligini baholash darajalari keltirilgan.

Monografiyaning ilmiy muhimligi bo'lib, vaqt qatorlarini shakllantirish va asosiy sifatlarini ko'rsatish asosida uch o'lchamli vaqt algoritmik qatorlar va usullar tavsiya etilishi hamda tinglovchilar sonini ratsional modellashtirishni e'lon qilinishi va boshqaruv tizimini taminlashni optimal matematik qarorlari ishlab chiqilishi hisoblanadi.

Amaliy muhimligi esa, o'rganuvchilar miqdorini yil davomida oyma-oy va o'qituvchilarning yuklamalarini o'quv jarayonni grafik asosida shakllantirilishi va taklif etilgan o'qitishning natijaviyligiga uslubiy baho berilishi hamda bilim darajasini oraliq nazoratlarni avtomatlashtirish testlarini ishlab chiqilishi hisoblanadi.

Qabul qilingan natija va xulosalarning to'g'riligi modelning adekvatligi va haqiqiy ma'lumotlarni natijaviyligi bilan tasdiqlanadi.

I BOB. QAROR QABUL QILISHDAGI AVTOMATLASHTIRILGAN O'QITISH TIZIMINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

1.1. Boshqaruv qarorlarining turlari va ishlab chiqish tamoyillari

Ta'lif - jamiyat va iqtisodiyotning modernizatsiyasida muhim rol o'ynaydi. Innovatsion iqtisodiyotga - ta'lifning raqobatisiz o'tib bo'lmaydi. Mehnat resurslarining sifati ta'lif darajasiga bog'liq bo'lib, ta'lifga bo'lgan muammolarning sifatini aniqlash va raqobat bardoshligini belgilash tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Qaror qabul qilishning kerakliligi tashqi muhitga ham bog'liq bo'lib, bunda ta'lif muassasalari qarama-qarshi aloqalar yordamida harakatda bo'lishga majbur bo'lishadi, bunda ular o'zida boshqaruv obyekt (holat)ning maqsaddan chetlashish parametrlari ko'rinishida ma'lumotni ifodalaydi.

Qaror qabul qilishga strategik, taktik va operativ(tezkor) maqsadlarning birlashmasi ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Maqsad deganda (optimallik darajasi, maqsadli funksiya), biz oldimizga qo'yilgan so'nggi natijani o'rganilayotgan tizimda u yoki bu boshqaruv ta'sirlarini tanlash va amalga oshirish yo'li orqali erishishni tushunamiz. Boshqacha so'z bilan aytganda maqsadli funksiya - qabul qilinayotgan qarorni baholashning miqdoriy o'chovidir. Ishlab chiqarish muhitidagi maqsad, qoidaga ko'ra shundan iboratki, korxonadagi foydani maksimallashtirish yoki harajatlarni minimallashtirish tushuniladi. Bu maqsad berilgan ekspluatatsiya harajatlardan tashqari ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Lokal maqsadlardan tashqari qoidaga ko'ra umumiyligi global maqsadni tanlay bilish kerak. Boshqaruvning maqsadi boshqaruv obyekti holatidan kutilgan xohlangan va aniq maqsadlar o'rtasidagi tafovutni yo'qotishdan iborat. Boshqaruv maqsad – qaror bog'lanish ko'rinishida noaniq bo'lishi mumkin, chunki bitta maqsadga olib boradigan yo'llarning ko'pligidir.

Boshqaruv qarori (BQ) – maqsadga erishishning turli xil yo'llarini real vaqtda baholash.

Zamonaviy adabiyotlarda "qaror" degan tushuncha quyidagicha shakllanadi:

- jarayon (qaror qabul qilish va ishlab chiqarish vaqtidagi interval);
- tanlash dalolatnomasi (qaror qabul qilishda aniq qojadalarini aniqlash);
- tanlov natijasi (qarorni qabul qiluvchi shaxsinining (QQQSH) maqsadistagini inobatga olgan holda alternativlarni tanlash);
- faoliyat determinanti (qaror ko'rinishi bo'lib, maqsad, me'yor yoki baho ko'rinishida ifodalanadi).



1. 1-rasm. Boshqaruv qarorlari sinflanishi


Turli xil boshqaruv qarorlarining o‘zida ko‘p miqdordagi qaror qabul qiluvchi shaxslarni tashkil qilgan tashkilotlardi ierarxik tizimida tahlil qilish uchun boshqaruv qarori (BQ) tipologiyasidan foydalilanildi:

- *Obyektili qaror* – global rejalarini tuzishda obyektiv alternativlarning taxminiy qarorlari yoki tadbirkorning ishlab chiqarish hajmi, mahsulot narxi haqidagi qarorlaridir;
- *tashkiliy qaror* - boshqaruv qarorini joriy qilish bo‘yicha tadbirlarni tanlash demakdir;
- *kommunikatsion qarorlar* – axborotni tashuvchi bilan ierarxik tizimda umuman bog‘liq bo‘lmagan tashkilot a’zosiga aniq ma’lumotni uzatish qarori.

Dasturlashtirilgan omadli boshqaruv qarori tahlil qilinib nusxalanadi va menedjerlar tomonidan ko‘paytirilib, boshqaruv holati uchun odatiy andoza va boshqaruvning umumiyligi normalariga aylantiriladi, va keyinchalik majbuliy qoidalar kategoriyasiga kiritiladi va baho darajalari sifatida yuritiladi. Streotiplier ta’sirida ijodiy usullar chiqarib tashlanadi va boshqaruv faqatgina additiv xususiyatlardan, balki natijaviylikni ham yo‘qtadi, chunki begona boshqaruv modellari yagona bo‘lib universiallik xususiyatiga ega emas.

Boshqaruv modelining universialligi quyidagi shartlarda erishiladi: boshqaruv obyektining mavjud xususiyatlarini o‘rganish, tashqi ta’sir omillarini hisobga olish, umumiyligi qurish tamoyillaridan foydalish orqali va bu boshqaruv algoritmlarining invariantligini taminlaydi.

Boshqaruv qarorini qabul qilish algoritmi 1.2-rasmda ko‘rsatilgan.




1.2-rasm. Qaror qabul qilishning asosiy talablari

Boshqaruv qarorini qo‘yish o‘zida qarorga bo‘lgan muhtojlikni, holatni diagnostika va tahlil qilishni anglashni mujassam etishi kerak.

Taklif qilinayotgan alternativ qarorlar aniq bo‘lishi kerak, va qarori qabul qilish imkoniyatini pasaytiradigan tashkilotning ichki va tashqi qoniqish (cheklov)larini qondirishi kerak. Asosiy cheklovchilar sifatida: qonun va normativ

xujjalalar, material va xomashyo resurlarining narxlanishi, raqobatchilik, mahsulotga talab, iqtisodiy resurslarning etishmovchiligi, ish jarayonining past kvalifikatsiyasi va h.k.



1.3-rasm. Boshqaruv qarorlariga qo'yilgan asosiy talablar

Barcha cheklowlarga javob beruvchi mumkin bo'lgan variantni tanlashda, qaror qabul qilish darajalari bo'yicha amalga oshirilishi kerak. Qoidaga asosan, qaror qabul qiluvchi shaxs minimal tavakkalchilik va noaniqlikka bog'liq bo'lgan variantni tanlashga harakat qiladi. Va qaror qabul qilish, qaror qabul qiluvchi shaxsnинг tavakkalchilikka bo'lgan munosabatga bog'liq bo'ladi.

Aniq boshqaruv qarorida noaniqlikning mavjudligidan qochib bo'lmaydi, ammo noaniqlik darajasini qaror qabul qilish nazariyasidan foydalangan holda kamaytirish mumkin. Boshqaruv qarorni ishlab chiqishda bajarilishi kerak bo'ladigan bosqichlar 1.1-jadvalda keltirilgan.

Tamoyillari va xususiyatlari	Qaror tavsiloti
Maqsadning yo'naltirilishi	Boshqaruv qarorlari maqsadga yo'naltirilgan imkoniyatlarini o'zgartirish va boshqaruv qarorlarini qarama qarshilik darajasi
Holatliligi	Qarorlar haqqoniy bo'lishi uchun qarordagi xarakter xususiyati va talab hisobga olinishi shart
Muammoliligi	Qaror qandaydir muammoni echishi shart
Elektivligi	Kriterlik, aniqlilik asosidagi yagona variantni tanlash bo'lib, bunda qarorning to'g'irligi, faolligi va sifati tafsiflanadi
Tashkiliy ahamiyati	Tashkiliy kuchlarning miqdori
Texnik muvofiqligi	Qaror qabul qilish shunday sxemani o'z ichiga oladiki, bunda u iqtisodiy vaqt darajalariga material moliyaviy va mehnat resurslari asosida qurilgan bo'ladi
Qaror ishlab chiqarish uslubi	Yondoshishni tanlash va amalga oshirish, holatni baholash va tahlil qilish, shakllanish, axborot variantlarini loyihalash

Qarorni tadbiq etish. Bu amaliyotda qabul qilingan boshqaruv qarorlarini amalga oshirishdir. Boshqarish va yo'naltirishda qaror qabul qilish kerakli manbara yo'naltirilganligiga ishonch hosil qilish kerak. Ta'kidlash joizki, qaror qabul qilish davriy jarayon. Qaror qabul qiluvchi shaxs qayta aloqa yordamida ma'lumotlarni qabul qiladi, ushbu ma'lumotlar asosida qaror noto'g'ri ekanligi aniqlansa, muammolarni qayta tahlil qilib, mumkin bo'lgan yechimlar baholanadi va yangi harakat rejasini tuziladi.

1.2. Qaror qabul qilishni va avtomatlashtirilgan o'qitish tizimini shakllantirish usullari.

O'r ganilayotgan jarayonlarni tahlil qilishda axborot bazasi sifatida dinamik va vaqt qatorlari hisoblanadi. Vaqt qatorlarida tartiblangan belgi sifatida vaqt ishlataladi. Kuzatishning vaqt qatorlari Y(1), Y(2), ..., Y(N), N darajasidan iborat bo'ladi va quyidagi holatda yoziladi:

$$Y(t), t=1, 2, \dots, N. \quad (1.1)$$

Vaqt qatorlarining oddiy statistik tanlovlardan farqi [74]:

- 1) Vaqt qatorining vaqt bo'yicha ketma-ket darajalari o'zaro bog'liq hisoblanadi;

2) Joriy vaqt jarayondan uzoqlashishi bilan kuzatishning axborot qadri kamayib boradi;

3) Vaqt qatorlari darajalarining ortishi bilan aniqlik xarakteristikalari kuzatishlar soniga o‘xshash bo‘lmaydi, balki yangi rivojlanish tendensiyasi(usullari) paydo bo‘lishi bilan kamayadi.

Bashorat qilish usuli - bu obyektni o‘rganish usuli bo‘lib, obyekt holati haqida kelajakda ma’lumot olish imkonini beruvchi bashoratlarni ishlab chiqishga asoslangan.

Bashoratlarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- *tizimlilik*, tahlil holatini bir butun sifatida ko‘rsatadi va uning umumiyligini bashorat qilishning mustaqil yo‘nalishlariga nisbatan aniqlaydi;

- *adekvatlik*, nazariy modelning mustahkam, mavjud qonun-qoidalarga maksimal yaqinlashishini ifodalaydi. Yaratilgan modellar mavjud tendensiyalarga taqlid(imitatsiya) qila olish imkoniyatiga tekshirilish kerak.

- *alternativlik* (bir-biriga zid ikki yo‘l) - iqtisodiy obyektning turli xil yo‘nalishlarda turli xil tuzilishli munosabatlar va bog‘lanishlar ta’sirida rivojlanishi tushuniladi. Ushbu tamoyilning amaliyotda tadbiq etilishida asosiy muammozi – barcha variantlar orasida kelib chiqqan vaziyatga asoslanib faqat bittasini tanlashdir.

Bashorat qilish uslubi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi [49]:

- Bashoratlashdan oldingi yo‘nalishni tanlash (taxmin vaqt, topshiriqlari, maqsadi va predmetini aniqlash);

- Bashoratdan oldingi fondning yaratilishi (retrospsiya(ortga nazar tashlash) oralig‘ida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish);


- qidiruv modelining shakllanishi, uning verifikatsiyasi (ma’lumot natijasining to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish), kerak bo‘lsa - aniqlashtirish;

- kerakli qarirlarni tayyorlash, asoslash, qabul qilish.

Bashorat qilish jarayoni ikki bosqichga bo‘linadi:

- *induktiv* – kuzatilayotgan ma’lumotlarni umumiylashtirish va statik qonuniyatlarini model ko‘rinishiga olib kelish;

- *deduktiv* – o‘rganilayotgan qiymatning kutilayotgan ko‘rsatigichi ishonch intervali ko‘rsatilgan qonuniyatlar asosida vaqt lahzasida bashoratni qabul qilish.



1.4-rasm. Bashorat qilish va rejlashtirish usullarining sinflanishi

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bashorat qilishning 150 dan ortiq uslubi mavjud bo'lib, shulardan faqat 15-20 tasi amaliyotda qo'llaniladi.

Fokal obyektlar usuli, yo'naltirilmagan tasodify qidiruv strategiyasiga asoslangan bo'lib, ijodiy fikrashni faollashtirishga (aktivizatsiya) olib keladi. Tasodify tanlangan obyektning belgilari o'rganilayotgan obyektga o'tkaziladi [59].

Evristik usullar, induktiv ma'lumotlar qurish bilan shug'ullanadilar va ekspertlarning bilim tajriba, ichki sezgilarini asosida shakllanadi.

Ma'lumotlar modeli. Agar iqtisodiy bosqich rivojlanishida umumiy qonunlar ma'lum bo'lsa, uning tuzilishi, funksional aloqasi va tajribali tanlov taqsimoti bo'lsa va u modelning ishlash qobiliyatini tekshira olsa, demak u analitik usullar bilan quriladi. Statistik usullarga, ma'lumotlarning stoxastik shakllanish usullari kiradi. Rivojlangan matematik apparat amaliy qo'llashning keng tajribasi statistik usul va modellarni yanada jalb etadi [49].

Ekstrapolyasiyaning asl mohiyati - iqtisodiy ko'rsatgichning o'tmishda, hozirdagi rivojlanish tendensiyasini o'rganishda va ularni kelajakka yo'naltirishdan iborat. Bashorat qilish va rejalashtirish usullarining tasniflanishi 1. 4-rasmida keltirilgan

Ssenariyli rejalashtirish. Investitsion loyihalarni operatsion xavfini (risk)baholashda eng ko'p tarqalgan ssenariyli rejalashtirish bo'lib, asosan o'rta va uzoq muddatli rejalashtirishda quyidagi miqdoriy usullarga ega:

- statik usul;
- sezgirlikni tahlil qilish (parametrlarni variatsiyalash usuli);
- mustahkamlikni tekshirish (kritik nuqtalarni hisoblash);
- taqqoslashlar usuli (noaniqliklarni formallashtirilgan holda ifodalash);
- immitatson modellash (Monte-Karlo sinovlarini statik usuli);
- diskontlash stavkalarini to'g'irlash usuli.

Ssenariyli tahlilning asosiy holati quyidagicha:

- rejalashtirish davomida tashkilot holatiga ta'sir qiluvchi, tashkilotga bog'liq bo'lmagan cheksiz tashqi omillar mavjud;

- ushbu omillarning ba'zilarini miqdoriy baholashning qisman imkonini yoki umuman imkonini yo'q;

- miqdoriy omillarning qiymatlari rejalashtirish oraliq'ida noma'lum va faqat taxminiy baholash mumkin;

- loyihaning realligi omillarning diskret qiymatlarini emas, balki ma'lum qiymatlar oraliq'ini ko'rib chiqish orqali oshirish mumkin. Shu bilan birga, ssenariylar usulida o'rganilayotgan loyihaga ~~tarixi qiluvchi omillarning u. bilan~~ ~~MUHAMMAD AFRORSHAMY NOMIDASI~~ ~~TOCHIKI VA AXBOROT~~ ~~TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI~~ ~~381538~~ ~~AXBOROT-SEZGILAR MARKAZI~~

Ssenariylar usuli malakali ekspertlar tomonidan loyihani amalga oshirish uchun barcha mumkin shartlarni va shu shartlarga javob beruvchi harajat, natija va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashini nazarda tutadi. Bo'lishi mumkin bo'lgan variantlar sifatida kamida 3 ta ssenariyni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq : piessimistik, optimistik va ehtimoli yuqori (realistik yoki o'rta) bo'lgan. Ssenariylar usulini amalga oshirishning keyingi bosqichi mavhumlik haqidagi chiquvchi ma'lumotlarni alohida malakaga oshirish shartlari va mos samaradorlik ko'rsatgichlari ma'lumoti ko'rinishiga o'tkazishdir. Mavjud ma'lumotlar asosida loyihaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatgichlari aniqlanadi. Agar p,yoki bu jarayonning amalga oshish ehtimoli ssenariyada akslangan bo'lsa, unda loyihaning kutilgan integral samarasi NP_{kd} matematik kutish darajasi bo'yicha aniqlanadi:

$$NP_{kd} = \sum_{i=1}^n p_i * NP_i \quad (1.2)$$

bunda NP_i - integral, natijalar ssenarilar asosi i- ga teng.

Agar alohida ssenariylar ehtimoli bo'yicha hech narsa ma'lum bo'lmasa yoki ularning hoxlaganini amalga oshirish hech ehtimoliy hodisa bo'lmasa va ehtimollar nazariyasi iboralarida ta'riflab bo'lmasa, minimaks usulidan foydalaniлади, umuman olganda pessimizmni optimallashtirish deb yuritiladi va L.Gurvits tomonidan taklif qilingan[45]:

$$NP_{kd} = \lambda * NP_{\max} + (1-\lambda) * NP_{\min} \quad (1.3)$$

bunda λ – optimizm ko'rsatgichi (0.3 bosqichida qabul qilish taklif qilinadi); NP_{\max} , NP_{\min} – ssenariy asosida ko'rib chiqilgan katta va kichik integral samaradorlik.

$\lambda = 0$ bo'lgan darajalarda Vald darajalariga murojaat qilinadi, bu esa bo'lishi mumkin bo'lgan ssenariylarning eng yomoni – pessimistik baho degani. Ammo eng yomon ssenariyga qarata xavflarni kamaytirishga yo'naltirilgan harakatlar, o'zini oqlamagan katta harajatlar va yanada yaxshiroq holatlar uchun juda katta zahiralarni yaratishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, juda ko'pchilik loyihalar ushbu holatda rad etilishi mumkin. Agar $\lambda=1$ Gurvits darajalarida chegaraviy optimizm darajalariga murojaat qilsa, mumkin bo'lgan ssenariylar orasidan eng yaxshisiga qarata harakatlar amalga oshiriladi, garchi uning amalga oshishi ehtimoli unchalik katta bo'lmasa ham.

Ssenariyi tahlilning asosiy kamchiliklari:

- loyiha bo'yicha mumkin bo'lgan natijalarning faqat bir nechtasini hisobga olish;
- ehtimoliy baholarning ishonchlilik muammosi;

- o'rta muddatli va o'rta yoki yuqori darajadagi noma'lumlikda samarador;
- qisqa muddatli bashorat qilishda odatda trendlarga asoslangan ssenariylarning o'zi kifoya;
- ishonchli natijalarini olish uchun sezilarli vaqt harajatlari va ekspertlarning katta ishchi guruxini talab qiladi;
- har bir savolga faqat bitta javob bor deb ta'kidlaydigan oddiy boshqaruva tamoyillariga, qaysiki har bir muammoni 3 qismga bo'lish va har birini alohida echish mumkin deb ta'kidlash mos kelmaydi, ssenariyli rejalahtirish – rejalahtirishning tizimli yondashuvi;
- ssenariylar natijasi odatda faqat sifatli xarakteristikalar ko'rinishida ko'rsatilishi;
- ba'zi xarakteristikalarining yomonlashuvi bilan bir vaqtida boshqalarining yaxshilanishida ssenariyli tahlilni qo'llab bo'lmaydi, chunki bitta parametr yomonlashuvining boshqa parametr yaxshilanishi oxirgi natijaning o'zgarishiga olib kelmaydi, ammo qaysi omillar u yoki bu natija ko'rsatgichlariga ta'sir ko'rsatganini aniqlab bo'lmaydi.

Chegaraviy ehtimollar nazariyasi teoremasiga asoslangan Monte Karlo immitatsiõn modeli, ssenariyli tahlil imkoniyatlarini kengatiradi va kompyuter yordamida minglab ehtimoliy ssenariylarni yaratadi. Ssenariylarni berilgan parametrlar asosida ehtimoliy generatsiyalash mumkin: matematik kutilma va o'rta kvadratik chetlashashish usullari orqali. Bundan tashqari natijaviy ko'rsatgich faqatgina bitta ko'rsatgich bilan emas, balki barcha mumkin bo'lgan uning qiymatlarining tahmini ko'rinishida ifodalanadi. Usulning kamchiliklariga: natijaning aniqligini ta'minlovchi ehtimoliy qiymatlar va ularni amalga oshirishlar soni N psevdogeneratsiyalarning kattaligi.

N qiymatga baho berilayotganda ishonchi darjasini Q beriladi, bu esa ehtimoliy hodisa A ning statik paydo bo'lish chastotasi mustaqil tajribalarda uning ehtimolligiga qaraganda r dan kichik va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = \frac{p(1-p)}{\epsilon^2} [F^{-1}(0.5 * Q)]^2 \quad (1.4)$$

F^{-1} - Laplasning teskari funksiyasi.

1.3. Vaqt qatorlari tahlili va bashorat qilish modelining adekvatligini tekshirish

Bashoratlash topshirig'i $Y_p(t)$ qatorining vaqt lahzasida qiymatlarini olishdan iborat, $t = N+1, N+2, \dots, N+k$, bu yerda k - bashoratlash qadamlar soni.

I bosqich. Ma'lumotlarni baholash

O'rganilayotgan ko'rsatgichlar albatta mos, bir ildizli va mustahkam bo'lishi kerak. Ulardagi kuzatishlar soni N ancha ko'p $N = 9 \dots 12$.

Taqqoslash - bir xil o'lchov qiyatlari va kuzatuv qadamlari orqali bitta usulda barcha vaqt qatorlarini hosil qilishdan iborat.

Bir ildizlilik talabi - o'rganilayotgan iqtisodiy ko'rsatgich va anomal kuzatishlarda kuchli sinishlarning oldini olishdan iborat.

Anomal kuzatishlar - oldingi darajani tiklash vaqtida kuchli sakrash yoki pasayish vaqtida kuzatilish mumkin.

Barqaror bo'limgan vaqt qatorlari - grafiklarida qiymat darajalari xaotik (tartibsiz) o'zgaradi, shuning uchun shu kabi ko'rsatgichlarda qonuniyatni aniqlash hech qanday ma'noga ega emas.

II bosqich. O'rganilayotgan qiymatning rivojlanish tendensiyasini anqilash. Rivojlanish tendensiyasi vaqt qatorining joriy qiymati o'sishi yoki kamayishiga bog'liq bo'lmasdan, boshqa xarakteristikalarga ham bog'liq, ya'ni: dispersiya, avtokorrelyasiya, korrelyasiya va h.k.

Agar vaqt qatorida iqtisodiy ko'rsatgichning uzoq muddatli tendensiya o'zgarishi kuzatilsa, bu yerda trendga o'rinn bor. Trendni identifikasiya qilish uchun o'rta darajalar farqini tekshirish usulidan foydalanish mumkin.

O'rtacha darajadagi xilma-xillikni tekshirishning algoritmik usuli.

1. Vaqt qatori ikkita deyarli bir xil qismalgarda bo'linadi : n_1, n_2 – mos ravishda 1- va 2- qatorlardagi darajalar soni. Har bir yangi qator uchun dispersiya hisoblanadi :

$$\sigma_i^2 = \frac{\sum_{i=1}^{n_1} (y_i - \bar{y}_1)^2}{n_1}, \frac{\sum_{i=1}^{n_2} (y_i - \bar{y}_2)^2}{n_2} \quad (1.5)$$

bu yerda, y_1, y_2 -qatorlar qiymatlarning o'rta arifmetik qiymati.

2. Qatorlar uchun quyidagi formula bo'yicha Fisher darajasi hisoblanadi

$$F = \begin{cases} \frac{\sigma_1^2}{\sigma_2^2}, & \text{agar } \sigma_1^2 > \sigma_2^2 \\ \frac{\sigma_2^2}{\sigma_1^2}, & \text{agar } \sigma_1^2 < \sigma_2^2 \end{cases}. \quad (1.6)$$

3. $F_s F_T$ - qiymatlarning taqqoslanish orqali bir ildizga egaliligi tekshiriladi. α -berilgan qiymatilik darajasining Fisher jadval qiymatlari asosida.

$$F < F_T \quad (1.7)$$

Agar (1.7) shart bajarilsa, dispersianing tengligi gipotezasi qo'llanilgan bo'ladi va 4-punktga o'tish mumkin. Aks holda usul trendning mavjudligini aniqlab bera olmaydi.

4. Trendning mavjudligini t_c Stuydent darajasiga tekshiramiz:

$$t_c = \frac{|\bar{y}_1 - \bar{y}_2|}{\sigma \sqrt{1/n_1 + 1/n_2}}, \sigma = \sqrt{\frac{(n_1 - 1)\sigma_1^2 + (n_2 - 1)\sigma_2^2}{n_1 + n_2 - 2}}. \quad (1.8)$$

Agar $t_c > t_{cT}$ (t_{cT}) bo'lsa, trend mavjud bo'ladi, aks holda yo'q.

Vaqt qatorlarining darajalarini additiv ko‘rinishda, iqtisodiy ko‘rsatgichning ehtimoliy rivojlanishi va (Y_p) qonuniyatni ifodalovchi ya’ni:

$$Y(t) = Y_p(t) + E(t), \quad (1.9)$$

bu yerda, $E(t)$ – qoldiq komponenta aksini olganda trend sifatida ponimal egrisi o’sishlar ishlataladi:

$$\begin{aligned} Y_p(t) &= a_0 + a_1 t, \text{ qarda } t = 1, 2, \dots, N, \\ Y_p(t) &= a_0 + a_1 t + a_2 t^2, \\ Y_p(t) &= a_0 + a_1 t + a_2 t^2 + a_3 t^3, \end{aligned} \quad (1.10)$$

bu yerda a_1 –chiziqli o’sish, a_2 – o’sish tezligi, a_3 – o’sish tezligining o’zgarishi[43].

Trend parametrlari kichik kvadratlar usuli bo‘yicha kvadratik chetlanishning minimallashuvi sharoitlarida yotadi:

$$S = \sum_{t=1}^N (Y_p(t) - Y(t))^2 \rightarrow \min \quad (1.11)$$

Bashorat modelini adekvatlikka tekshirish. Qaralayotgan modelning adekvatligi, aniq statik xususiyatlari va aniqlik – faktik ma’lumotlarga yaqinlik darajasi bilan xarakterlanadi. Matematik model agar qoldiqlar qatorining matematik kutilmasi nolga yaqin yoki teng $E(t)$ qatorning qiymatlari tasodifiy, mustaqil va normal taqsimlash qonuniga bo‘ysinsa adekvat hisoblanadi.

Qoldiqlar qatorining qiymatlari quyidagicha hisoblanadi

$$E(t) = Y(t) - Y_p(t), t = 1, 2, \dots, N. \quad (1.12)$$

Matematik kutilmaning nolga tengligini tekshirish t_c – Styudent darajasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

$$t_c = \frac{|E|}{S_E} \sqrt{N}, \quad (1.13)$$

bu yerda, S_E – qoldiqlar qatorining o’rtacha kvadratik chetlashishi, E – o’rtacha kvadratik chetlashishi:

$$\bar{E} = \frac{\sum_{t=1}^N E(t)}{N}, S_E = \sqrt{\frac{N \sum_{t=1}^N (E(t))^2 - (\sum_{t=1}^N E(t))^2}{N \cdot (N-1)}} \quad (1.14)$$

Gipoteza agar $t_c > t_{ct}$, bo‘lsa chetlashadi.

Vaqt qatorlari darajalarining taxminiy bo‘linishi burilish nuqtalari darajasi bo‘yicha amalga oshiriladi, agar darajalar qiymatlari solishtirilganda quyidagi qonuniyatga javob bersa:

$$E(t-1) < E(t) > E(t+1) \text{ yoki } E(t-1) > E(t) < E(t+1), t = 2, 3, \dots, N-1$$

boshqa hollarda majburiy tengsizlik bajariladi, $r_T >$ butun qism

$$[2(N-2)/3 - 2\sqrt{(16N-29)/30}], \quad (1.15)$$

bunda r_T – takroriy nuqtalar soni.

Qatorda tizimli tashkil qiluvchilarni mavjudlikka tekshirish d – Darbin-Uotson darjasini bo'yicha hisoblanadi model:

$$d = \sum_{t=1}^N [E(t) - E(t-1)]^2 / \sum_{t=1}^N E^2(t) \quad (1.16)$$

d-daraja o'rniga avtokorrelyasiyaning birinchi koeffitsiyentini ishlatalish mumkin [32, 33]:

$$r_1 = \sum_{t=1}^N E(t) \cdot E(t-1) / \sum_{t=1}^N E^2(t) \quad (1.17)$$

agar $|r_1| > r_T$ (r_T – jadval qiymat) bo'lsa, qoldiqlar qatorida avtokorrelatsiya mavjuligi isbotlanadi. Agar $|r_1| < r_T$ bo'lsa, qoldiqlar qatorining mustaqillik xususiyati bajariladi.

$E(t)$ qatorga mos ravishda, normal taqqoslash qonuniga asosan darajagacha quyidagi formula asosida tekshiriladi:

$$RS = [E_{max} - E_{min}] / S_E \quad (1.18)$$

bu yerda E_{max} va E_{min} – mos ravishda qoldiqlar qatori darajasining minimal va maksimal qiymatlari.

Agar berilgan ishonch darjasini r va qiymat RS tabulatsiyalangan chegaralar oraliq'iqa tushsa, $E(t)$ qatorning normal taqqoslanishi gipotezasi qabul qilinadi va bashoratning ishonchlilik oraliq'iini qurish mumkin.

$r = 0.95$ va $N=10$ uchun – $2,7 < RS < 3,7$ shart bajarilishi kerak.

Bashorat modelining aniqligini tasniflash uchun o'rtacha nisbiy xatolik ishlatalidi:

$$\bar{E}_{o'nx} = \frac{100\%}{N} \sum_{t=1}^N \frac{|E(t)|}{y(t)}. \quad (1.19)$$

$\bar{E}_{o'nx} < 5\%$ qiymat modelning yuqori aniqligidan dalolat beradi(agar xatolik 15% gacha etishi mumkin).

Bashorat aniqligi ($k=1$) modelga $t = N+1, N+2, \dots, N+k$ parametrni kiritish orqali aniqlanadi. Bashoratning ishonchlilik oraliq'i quyidagi chegaralarga ega bo'ladi :

- bashoratning quiyi chegarasi $Y_r(N+k) - va(k)$;
- bashoratning yuqori chegarasi $Y_p(N+k) + va(k)$,

bu yerda ostki interval (k) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$u(k) = S_T * e_{ST} \sqrt{1 + \frac{1}{N} + \frac{(N+k-t_{cp})^2}{\sum_{t=1}^N (t-t_{cp})^2}}, \quad (1.20)$$

bu yerda, S_T trenddan o'rta kvadratik chetlashish:

$$S_T = \sqrt{\frac{\sum_{t=1}^N E^2(t)}{N-2}}. \quad (1.21)$$

1.3.2. Bashorat qilishning adaptiv modeli.

Kvadratning eng kichik usuli axborotni teng baholanganligini yo'iga qo'yishi orqali kelib chiqadi. Axborotning vaqt o'tishi bilan eskirish hususiyati, jarayonning rivojlanishida kelajakda undan eskiroq axborotlarni tahlil qilishda ko'proq foydasi tegadi. Shuning uchun qisqa muddatli bashorat qilishda adaptiv usullar natijavilagini ko'rsatadi[22]. Bunda vaqt qatorlarining teng baholanmasligi va o'zgaruvchan muhitga tez moslasha olishi hisobga olinadi. Barcha adaptiv usullar ikki sxemaga asoslanadi: o'rta sirpanuvchan (eksponsial silliqlash usuli, Braun, Xolt-Uinters, Dj.Boks va Djenkenslar modeli) va avtoregressiya.

O'rтacha siljish usulida joriy vaqt qatorining bahosi sifatida joriy darajalarning o'rтacha o'lchanlik qiymati hisoblanadi, shu bilan birga daraja raqami oshishi bilan og'irliklar ham oshadi. Bu kabi modellarda bashorat xatoligiga javob qaytarish (rekatsiya) va vaqt qatorlari darajalarining diskontlashishi, nisbatan eski ma'lumotlarga nisbatan ishonch darajasini ko'rsatuvchi R koeffitsiyent orqali ($0 < p < 1$) aniqlanadi. R koeffitsiyent borasida quyidagi fikrlar mavjud:

- 1) Yangi kuzatishlar qiymatini oshirish uchun R ni ham oshirish kerak;
- 2) Ehtimoliy chetlashishlarni silliqlash uchun R ni kamaytirish kerak.

Braunning birinchi tartib silliqlash eksponensial modelini ko'rib chiqamiz:

$$Y_p(t) = a_0(t-1) + a_1(t-1) \cdot k, \quad (1.22)$$

bu yerda, k – bashoratlashning qadamlar soni, odatda $k=1$ deb qaraladi.

Koeffitsiyent a_0 qatorning oxirgi darajasi qiymatiga yaqin qiymatda bo'ladi, koeffitsiyent a_1 kuzatishlar oxirida yuzaga kelgan o'sishni ifodalaydi. $a_0(t)$, $a_1(t)$ parametrlari quyidagi formulalar bo'yicha to'g'irlanadi:

$$a_1(t) = Y_p(t) + E(t) * (1 - \beta^2), \quad (1.23)$$

$$a_0(t) = a_0(t-1) + E(t) * (1 - \beta^2), \quad (1.24)$$

bu yerda β –eski ma'lumotlarga nisbatan ishonch darajasi koeffitsiyenti.

Nisbatan to'g'ri yechim uchun Braun R koeffitsiyentini 0.1 dan 0.3 gacha bo'lgan oraliqda olishni taklif qiladi. Amaliyotda esa eng yaxshi natijalar $\beta=0.9$ bo'lganda erishilgan. Odatda β ning katta qiyamatiliga dinamik mavsumiy komponentalar yoki tendensiyalar sababi keltiriladi.

Braun modeli va ko'p parametrli modellar o'rtafigi emperik taqqoslashni Garrison amalga oshirgan va Braun modeli ko'p parametrik modeldan qolishmasligini aniqlagan.

1.4 Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish

Ta’lim sohasida zamonaviy boshqaruvni yaxshi tashkillashtirilgan axborot muhitisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Bilim (axborot muhiti) zamonaviy tashkilotlarda eng muhim resurslardan biri hisoblanadi va ularning faoliyat samaradorligi asosan barcha turdag'i bilimlar bilan ishlash jarayoniga bog‘liq.

Avtomatlashtirishga qo‘yilgan asosiy talablar ISO 9000 standartlarida keltirilgan (International Organization for Standardization), Oliy ta’limdag'i Evropa sifat kafolati assotsiatsiyasida (ENQA) ta’lim standartlarida ham ko‘rsatib o’tilgan.

